

## YANGI O'ZBEKISTON - YANGI IMKONIYATLAR YURTI

**Jo'raeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi**  
Toshkent Davlat yuridek Universiteti 2-boshqich talabasi  
Mohijurayeva08@gmail.com

### ANNOTATSIYA:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida: "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham, bog'chadan boshlab, oliy o'quv yurtigacha, ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"-deya ta'kidlab o'tganlar. Shunday ekan biz vatanimiz tomonidan bizga qanchalik shaoritlar yaratib berilyotganini hech shubhasiz ko'ra olamiz. Har jabhada yangiliklar, izlanishlar bo'layotgan yurimiz istiqboli yashnayversin. Ushbu maqola orqali vatanimizdagi yangilanishlarni izohlab bermoqchiman.

### KALIT SO'ZLAR:

davlat, istiqbol, yangilanish, modernizatsiya, tashabbus, yoshlar, parlament, islohotlar, ta'lim.

Milliy o'zligini anglash jarayonida millat kelajagi bo'lgan yoshlarning o'rni alohida ahamiyatga egadir. Chunki yoshlarimizning milliy o'zligini anglashi ajdodlarimizdan qoldirilgan moddiy va ma'naviy merosni, urf-odatlar, a'nanalar, qadriyatlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda milliy manfaatlarni, Vatan taqdiri va mamlakat taraqqiyoti uchun ma'sullik tuyg'ularining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi. Hozirgi kunda yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalananish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berilmoqda. Jumladan aytish mumkinki, muhtaram prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus bu qadamlardan eng ilg'ori bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz rahbarining O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqilarini eshitib, to'lqinlanib ketdim. Mazkur murojaat tom ma'noda O'zbekiston ta'lim taraqqiyotida tub burilish asosi bo'ldi desam, hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz shaxsan o'zları tarixda ilk bor o'qituvchi va murabbiylarga murojaat bilan chiqishi mamlakatimizda ta'lim va tarbiya masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz davlat rahbarligi faoliyatlarining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovasion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. "Men yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor-o'qituvchilarni o'zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Sizlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyattingizni qo'llab-quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'zimning muqaddas burchim, deb hisoblayman".

Darhaqiqat, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotgan bir davrda intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash naqadar dolzarb ekanligini isbotlashga hojat yo'q, albatta. Chunki, bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investisiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizasiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual

rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Prezidentimiz bu muvaffaqiyatlar kaliti ta'lim va tarbiyada ekanligi ta'kidlab, "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak" – deb, ta'kidladilar. Chunki, moziyga nazar tashlasak, uzoq o'tmishdan muqaddas zaminimizda yashagan ulug' ajdodlarimiz bundan ko'p asrlar ilgari hozirgi zamonaviy ilm-fanga poydevor qo'yib, uni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan. Xususan, ular matematika, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix, arifmetika, farmakologiya, tibbiyot, falsafa va tilshunoslik sohalaridagi qomusiy ishlari, ixtirolari bilan jahon sivilizasiyasi ravnaqida o'chmas iz qoldirganlar. Bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan tan olingani haqiqatdir.

Chunonchi, g'arbda "Nur Sharqdan taraladi" degan iboraning paydo bo'lgani ham bejiz emas, albatta. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Hakim at-Termizi, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizdan qolgan ilmiy-ma'naviy meros Sharq uyg'onish davrining durdonalari maqomida dunyo ahli tomonidan haqli ravishda tan olingan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo o'rta asrlar ilmiy-madaniy markazlaridan biri sifatida boshqa mintaqalardagi Renessans jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatgani jahon ilm-fanida o'z tasdig'ini topgan. Murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketdi. Yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovation ta'lim texnologiyalarini joriy etishga etarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqargani barchamizga sir emas.

Davlatimiz rahbari tomonidan mazkur muammolarni hal etish, ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. So'nggi ikki yilda 556 milliard so'm mablag' hisobidan 77 ta yangi maktab qurildi. 1 ming 930 ta maktabda qayta qurish va ta'mirlash ishlari bajarildi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlanmoqda. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Maktab ta'limi esa, 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda. Chunonchi, "Maktab muammofiga birinchi darajali masala deb qarashimiz lozim. Maktab – faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur".

Davlatimiz rahbarining xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi. Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqeahodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat berilmoqda. Albatta, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkonи tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Hozirgi kunda yurtimizdagagi barcha ta'lim, fan, madaniyat va ma'rifat muassasalari yuqori tezlikdagi Internetga ulanmoqda. Bu esa ta'lim jarayoniga masofadan turib o'qitish usullarini, o'quvchi yoshlar uchun axborot-kommunikasiya xizmatlarining keng majmuini joriy etish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliv o'quv yurtlari muhim o'ren egallamoqda. So'nggi to'rt yil mobaynida ularning soni 47 taga ortdi va bugungi

kunda mamlakatimizda 125 ta universitet va oliy o'quv yurtida talabalar ta'lif olmoqda. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lif muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Sirtqi va kechki ta'lif shakllarini qayta tiklandi, qabul kvotlari oshirildi. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi.

Dastur doirasida o'quv yurtlari uchun o'qituvchilar tarkibini tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini qayta tashkil etish, avvalo, o'quv-uslubiy bazani butunlay qayta ko'rib chiqish va zamonaviy talablarga javob beradigan yangistandartlar, darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tasdiqlash bo'yicha keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki, Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganda "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliyoh domlasi ta'lif va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobjiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lislari kerak".

Ta'lif sohasi xodimlari faoliyatini baholash va rag'batlantirish mezonlari tubdan o'zgartirilmoqda. So'nggi uch yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanmoqda. Bu olis hududlarda etishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o'qituvchilarga pensiyasi to'liq miqdorda berilmoqda.

Prezidentimiz parlamentimiz a'zolaridan mahalliy kengashlarning maktablar bilan ishslash tizimini alohida nazoratga olib, ushbu jarayonlarga yaqindan ko'mak berishlarini so'radilar. Oliy Majlis palatalari ikki oy muddatda umumita'lif maktablari bilan ishslashni yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari ustuvor vazifa etib belgilab berildi.

## XULOSA

Shu o'rinda prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus"ni aytib o'tishni joiz deb topdim. U bamicoli yoshlar uchun besh imkoniyat eshigiga o'xshaydi. Tashabbus doirasida bugun muhim bo'lgan va eng asosiysi, yoshlar o'z qobiliyatlarini ko'rsata oladigan sohalarning qamrab olingani g'oyaning ming o'ylab, so'ngra amaliyotga tadbiq etilganidan dalolat beradi. Tashabbus doirasida kitobxon yoshlar rag'batlantirilishi, nafaqat bu sohada, balki boshqa yo'naliishlarda ham olib borilayotgan islohotlar kishini hayratlantiradi. Misol uchun xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida chekka-chekka qishloqlarda bunyod bo'layotgan fabrikalarning-ku sanog'i yo'q. Bu ham imkoniyatlar bejiz emasligidan, ish bilan ta'minlagan kishi daromadli bo'lishi, daromadli kishi esa, yaxshi yashashi va ana shu yaxshi yashashni xalq uchun muhayyo qilish kerakligidan darakdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori <https://lex.uz/docs/-4601876>
2. Mirziyoyev Sh.M. "Birgalikda biz erkin va gullab-yashnagan O'zbekistonning demokratik davlatini barpo etamiz" T.: O'zbekiston.2016 yil
3. Karimov I.A. "Vatanimiz baxti va buyuk kelajagi uchun xizmat qilish - bu eng oliy baxt" T.: O'zbekiston.2015
4. Usmonov K. Sodiqov M. Burxonova S. "O'zbekiston tarixi" T.: "Iqtisodiyot va moliya". 2006 yil
5. Ta'lif tizimidagi islohotlar <http://xs.uz/uzkr/42995>